

## PUSHKIN IJODI

*Mirxalova Mastura Axmadjonovna*

*Namangan viloyati Namangan tumani 19-umumiy*

*O'rta ta'lif maktabi rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada, rus adabiyoti durdonasi hisoblangan, Pushkin qalamiga mansub, "Yevgeniy Onegin" she'riy-romani, uning obrazlar tizimi, asardagi bosh obraz bo'lgan opa-singillar Tatyana va Olga Larinalarning harakter xususiyatlari, bir xil sharoit, bir xil muhitda tarbiya topganiga qaramasdan o'zaro butkul farq qiladigan jihatlari, shuningdek ayrim birlashtiruvchi tomonlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** She'riy-roman, muallif, obraz, burjua, ideal, Tatyana, Olga, Yevgeniy Onegin, Lenskiy, mengzamoq, tasvir, konflikt, personaj, detal.

### KIRISH

Rus adabiyoti durdonasi bo'lgan V. Belinskiy ta'biri bilan aytganda "...rus adabiyotining ensiklopediyasi" bo'lgan shoh asar "Yevgeniy Onegin" she'riy romanida ham ikki xil tabiatli opa va singil obraziga to'xtalib o'tilgan. Bular Tatyana va Olga obrazlari hisoblanadi. Asarga diqqat qaratadigan bo'lsak, muallifning o'zi ham Tatyana va Olganing tashqi ko'rinishi, qolaversa, harakterlarini juda ko'p o'rnlarda taqqoslab o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida, quyida shoir tomonidan Olgaga berilgan ta'rifga diqqat qilamiz:

"Olga har vaqt kamtar, har vaqt adabli,  
Hamisha tong kabi edi u quvnoq.  
Sof dili shoirning umri singari  
Sevgi bosasidek dilbr, isinchoq,  
Ko'zлari osmondek tiniq zangori  
Uning tabassumi, sarg'ish kokili  
Raftori, tovushi va yengil qomat Bezardi Olgani..."

Yuqorida keltirilgan misralardan ma'lum bo'lganidek, shoir tomonidan Olga juda go'zal qiz sifatida tasvirlanadi, buni muallif har tomonlama ta'kidlab o'tadi. Olganing moviy rang ko'zлari, sarqi sochlari, chiroylı tabassumi va yoqimli ovozi haqida gapiradi. Shuning bilan birgalikda u Tatyanadan kichik bo'lsa-da zodagonlar jamiyatida o'z o'rmini topishga ulgurgan, burjua qoidalariga tamoman bo'ysunadigan, itoatkor, odobli va har mahal quvnoq yuruvchi sohibjamol tarzida tasvirlanadi.

### ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA TADQIQOT METODIKASI

Endi Olganing opasi bo'lgan, she'riy-romanning bosh obrazlarida biri sanaluvchi Tatyana yuzlanamiz:

“Demak uning ismi Tatyana edi  
Na u singlisining go‘zalligi-la  
Yuzining qip-qizil olmaday rangi  
Bilan u ko‘zlarni tortmas balki-da  
U kamso‘z, yovvayi, yuzlari dardli,  
Hurkakdi o‘rmonning kiyigi kabi  
O‘zining tug‘ishgan oilasiga,  
Ko‘rinar yod qizcha kabi Tatyana...  
Bilmasdi u sira erkalanishni  
Na otasigayu, na onasiga;”

Tatyana Olga kabi sohibjamol emas, qizil olmadek yuzi, qolaversa, ko‘zalarni o‘ziga tortadigan darajada yoqlimli surati ham yo‘q. Buning ustiga Tatyana juda kam gapiradigan, yovvoyi, yuzlari dardga to‘la, na otasiga, na onasiga erkalanishni bilmaydigan, o‘z oilasi uchun ham begonadek bir qiz. Bolaligidanoq hammadan ajralib turgan, boshqa bolalar singari o‘yin o‘ynashni, yugurib-chopishni yoqtimagan. Doimiy qiladigan mashg‘uloti esa, deraza oldida jimgina tashqarini kuzatib o‘tirish. Olga go‘zal tomondan qanday ulug‘langan bo‘lsa, xulq-atvor tomondan shunchalik sayoz va yengil tabiat qiz sifatida tasvirlanadi. Buni Lenskiy bilan boshda o‘tkazgan sevgi hikoyasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Shoir bian bolaligidanoq unashtirilgan qizning, qallig‘ining do‘sti bo‘lgan Onegin bilan o‘ylamay tushgan valsvari, noz-karashmasi yosh Lenskiyning o‘limiga sababchi bo‘ladi. Sevgilisining fojeaviy o‘limidan so‘ng Olga uzoq vaqt g‘am-alam chakib o‘tirmasdan boshqa bir yigitga, harbiy generalga turmushga chiqadi. Lenskiyning o‘limi va bunga Olganing munosabati haqida quyidagi satrlarni misol tariqasida keltirishni lozim topdik:

“Bechora Lenskiy! Biroz vaqt olga  
Ichidan ingradi, yig‘ladi piq-piq.  
Hayhot yosh qalliplar o‘z qayg‘usiga  
Bo‘la olmas ekan uzoq vaqt sodiq!  
Boshqasi jalb etdi uning diqqatin,  
Boshqasi bu qizning dard-u hasratin – Sevgi,  
hushomad-la yupatdi, tamom  
Bu harbiy odamdi xullasi kalom,  
Jalb etdi Olganing muhabbatini,  
Mana qiz u bilan mehrob qoshida,  
Turardi jimgina, gultoj boshida”.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi misoldan ma’lum bo‘lganidek, Olga o‘zgaruvchan tabiatli, hech narsaga uzoq vaqt muhabbat qo‘ya olmaydigan, qo‘yingki, o‘sha zamon romanlarining barcha bosh qahramonlari kabi yengiltak harakterga ega bo‘lgan bir qiz. Shuning uchun

ham muallif, bunday obrazdan “o‘lgudek zarikkan”ini yashirib o‘tirmaydi.

“Har qanday romanni olsangiz, unda  
Toparsiz rasmini, ko‘p yoqimli u,  
Ilgari o‘zim ham sevgan edim-ku  
Ammo zerikkanman undan o‘lguncha”

Shuncha go‘zalligiga qaramasdan Pushkin Olgani “...chehrasida hech qanday hayot yo‘q Vadika Madonnasiga”, “yovvoyi” tarzida tasvirlangan Tatyana esa Jukovskiy she’rining bosh qahramoni bo‘lgan Svetlana ismli hassos, xayolchan va romantik qizga qiyoslaydi. Muallif Tatyana obraziga o‘zi orzu qilgan ayol idealini joylaydi. Yoshligidan romanlar o‘qishni yaxshi ko‘radigan, afsonaviy ramzlarga ishonadigan, muhabbatga abadiy sodiq bo‘lgan, mavjud hukmron tuzumdan nafratlanadigan, faqat enagasi bilangina sirlasha oladigan va mana shu enagasi qo‘lida tarbiya topgan g‘ayrioddiy qiz edi. Uning singlisi Olga bilan farqli jihat, ayniqsa, muhabbat haqidagi qarashlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi:

“Mudhish yolg‘izlikda kuchliroq yonar  
Tatyana ko‘ksida sevgi otashi  
Onegin uzoqda, lekin zo‘rayar  
Qizning yuragida sog‘inch, qo‘msashi”

Olga halok bo‘lgan sevgisiga qanchalik bee’tibor bo‘lgan bo‘lsa, Tatyana javobsiz bo‘lgan muhabbatiga ham hamisha sodiq. Buni Tatyana ning o‘zi ham Onegin oldida tan oladi, lekin shu bilan birga u turmush o‘rtog‘iga hech qachon xiyonat qilmasligini aytib, o‘zining qanchalik sodiq rafqa ekanligini ham isbot etadi. She’riy-romanning ayrim o‘rinlarida Tatyana ning tarbiyasi qanchalik go‘zal ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Oneginga yozgan maktubidan so‘ng uni to‘satdan uchratib qolganda hijolatda o‘zini o‘rmonzorga urishidan, Onegin uning oldiga kelib, yozgan xatiga javoban muhabbatini rad etganida ham bir og‘iz so‘z aytmasdan, boshini quyi solib barcha gaplarini churq etmasdan tinglashidan, otaonasining so‘zidan chiqmay o‘ziga loyiq ko‘rilgan insonga turmushga chiqishidan va sevgan insoni uni oldiga kelgani, muhabbatini bir yoqqa surib, turmush o‘rtog‘iga sodiq qolishidan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Tatyana qanchalik g‘ayrioddiy bo‘lmisin o‘quvchining qalbidan joy oladi. Pushkinning o‘zi ham Tatyana hamisha avaylab “Tatyana” deb atashi, Svetlanaga mengzashi bekorga emas, albatta. Tatyana va Olganing o‘xshash tomonlari esa, avvalo, ularning opasingilliklarida, bir oilada va bir muhitda tarbiy ko‘rganliklarida shu bilan birga ikkalasi ham yosh zodagon honimlar ekanligida edi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.S.Pushkin. Yevgeni Onegin.G‘.G‘.Toshkent-2019.
2. Хатамов Н, Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русчаузбекча лугати. -Тошкент, 1979.
3. Иззат Султон. Адабиётшунослик назарияси.- Тошкент, 1986.
4. DilmurodQuronov. Adabiyotshunoslikkakirish. -T.2008.